



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-iyun holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan o'tgan

16903
ta

2019-yilning yanvar-may oylarida Jizzax viloyatida 2143 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 54,8 taga ko'pdir.

Faoliyat ko'rsatayotgan

16167
ta

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2884 ta (21,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16167 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil etilganlar

2143
ta

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)

16903 tani
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar
soni, birlikda




21,0 %

O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
o'sish sur'ati

2019-yilning 1-iyun holatiga 16903 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,0 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 20,5 % savdo, 16,2 % sanoat, 15,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,5 % qurilish, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 26,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (3473 ta) savdo, (2743 ta) sanoat, (2531 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1611 ta) qurilish, (1112 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (598 ta) tashish va saqlash, (233 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (199 ta) axborot va aloqa hamda (4403 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 16167 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2884 ta (21,7 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qishloq, o'rmon
va baliq xo'jaligi




Qurilish




Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Jizzax shahri (4920 ta), Sharof Rashidov (2691 ta), Zomin (1321 ta), G'allaorol (1274 ta) va Forish (1147 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangiobod (364 ta), Zafarobod (407 ta) hamda Arnasoy (524 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-may oylarida 2143 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 759 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (696 ta), sanoat (465 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (338 ta) va qurilish (254 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (23 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (23 ta) hamda tashish va saqlash (50 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



338

Tashish va saqlash



50

Sanoat



465

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



82

Qurilish



254

Axborot va aloqa



23

Savdo



696

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



23


Boshqa turlar

i

212


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (623 ta), Sharof Rashidov (379 ta), Zomin (197 ta) va G'allaorol (161 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Zafarobod (50 ta), Yangiobod (52 ta) hamda Arnasoy (80 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



Korxonalar sonini o'sishi, birlikda

Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 13107 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



154 ta



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 58,8 % o'sgan.

Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 154 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 57 taga yoki 58,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 103 tasi qo'shma, 51 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 66 ta (jamidagi ulushi 42,9 %), Forish 16 ta (10,4 %) va Zomin tumanlarida 12 tani (7,8 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirzacho'l 1 ta (0,6 %), Arnasoy va Zarbdor 3 ta (1,9 %) hamda Baxmal tumanlarida 4 ta (2,6 %) tashkil etgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 29 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 16 ta, Rossiya Federatsiyasi – 6 ta, Turkiya Respublikasi - 3 ta, Qozog'iston Respublikasi - 3 ta va Tojikiston Respublikasi - 1 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 15 ta sanoat, 7 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3 ta qurilish, 2 ta savdo, 1 ta tashish va saqlash va 1 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)



2019-yil 1-iyun holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 13063 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 26,4 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-may oylarida 2035 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 85,5 taga ko'proqdir.




•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng kichik
ulushi



•Jizzax shahri
32,2 %



•Do'stlik
3,7 %



•Sharof Rashidov
18,0 %



•Paxtakor
3,5 %



•G'allaorol
7,8 %



•Mirzacho'l
3,1 %



•Zomin
7,8 %




•Arnasoy
3,0 %



•Forish
7,3 %



•Yangiobod
2,2 %



•Baxmal
5,2 %




•Zafarobod
2,0 %




•Zarbdor
4,2 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13063 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3288 ta (25,2 %) – savdo, 2620 ta (20,1 %) - sanoat, 2336 ta (17,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1572 ta (12,0 %) - qurilish, 1049 ta (8,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 571 ta (4,4 %) - tashish va saqlash, 164 ta (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, 154 ta (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, 1309 tasi (9,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 696 ta, sanoat 463 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 336 ta va qurilishda 254 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 17 ta, axborot va aloqa 23 ta hamda tashish va saqlashda 50 ta tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (598 ta), Sharof Rashidov (352 ta), Zomin (192 ta) va G'allaorol (156 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Zafarobod (47 ta), Yangiobod (48 ta) hamda Do'stlik tumanlarida (73 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-iyun holatiga)




Ro'yxatdan o'tgan
Faoliyat ko'rsatayotgan
Yangi tashkil etilgan




Ro'yxatdan o'tgan
Faoliyat ko'rsatayotgan
Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 43,3 % yoki 283 tasi sanoat, 21,7 % yoki 142 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,3 % yoki 100 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,2 % yoki 73 tasi savdo, 0,5 % yoki 3 tasi qurilish, 0,5 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,1 % yoki 47 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Jizzax viloyati statistika
boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.**

Tel.:71-230-83-65(66)